

**S.M.Nazarova**

**TUPROQ FIZIKASI VA  
IQLIMSHUNOSLIGI**

**O'quv qo'llanma**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**S.M.Nazarova**

**TUPROQ FIZIKASI VA  
IQLIMSHUNOSLIGI**

**o'quv qo'llanma**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro - 2024**

**S.M.Nazarova** Tuproq fizikasi va iqlimshunosligi fanidan o'quv qo'llanma  
Buxoro -2023, 166 b.

Ushbu qo'llanmada keng tarqalgan qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarini mexanik, mikroagregat tarkibini, ularni klassifikatsiyasini, struktura holati, agrokimyoviy xossa va xususiyatlari tavsiflangan. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ayniqsa asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish hozirgi kunda respublikamizda o'ta dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bundan tashqari iqlimshunoslik masalalari, iqlimning o'zgarishi, uni belgilovchi omillar, iqlim o'zgarishi oqibatlari va oldini olish masalalari atroflicha bayon etilgan.

O'quv qo'llanma 60810700 - agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda tuproq fizikasi va iqlimshunosligi faniga oid mavzular asosida batafsil yoritilgan. O'quv qo'llanma zamonaviy pedtexnologiya talablariga mos ravishda tayyorlanib, unda o'quv mavzularida ko'rib chiqiladigan muammolar va ularning yechimlari ham keltirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma nafaqat agrokimyo va tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar balki qishloq xo'jaligi sohasidagi faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar, fermerlar ham foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir: b.f.d., professor H.T.Artikova

**Taqrizchi:** Biologiya fanlari doktori, professor S.B.Bo'riyev.  
Qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD) A.A.Musurmonov

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentyabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami. 438347.**

## KIRISH

Yer resurslaridan yuqori unum bilan foydalanishda, tuproqqa ishlov beruvchi yangi texnologiyalar va usullarini ishlab chiqish, quritish, sug'orish, kimyoviy va meliorativ tadbirlarni o'tkazish faqatgina tuproqlarni fizik xossalarini va tartibotlarini o'ziga xosligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tuproqlar unumdorligi fizik sharoitlarini ularning genezisi bilan aniqlanadi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan tuproqlar antropogen omillar ta'sirida bo'lib, mexanik ishlov, kimyolashtirish, melioratsiyalash, tuproqni boshqa xossalariga ta'sir ko'rsatgani kabi fizik xossalariga ham ta'sir ko'rsatadi, hamda tuproqlarni genezisini salbiy va ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Keyingi 10 yilliklarda dehqonchilikni intensiv rivojlanishi tufayli, tuproqqa antropogen ta'sir oshishi (asosan mexanik ta'sir) tuproq xossalarini fizik degradatsiyaga uchrash muammosi vujudga keldi, shu sababli bu fizik sharoitda unumdorlikni saqlash va tiklash yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Tuproq fizik xossalarini turli o'simliklar o'sish sharoitida tavsiflash ahamiyati yanada yuqori. Tuproqlarni fizik tavsiflash va shu bilan birga ishlab chiqiladigan tadbirlarni ekinlarni mahsuldorligini oshirishni ta'minlashini ilmiy asoslash zarur.

Ushbu qo'llanmani maqsadi keng tarqalgan qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarini mexanik, mikroagregat tarkibini, ularni klassifikatsiyasini, struktura holatini va qishloq xo'jaligida ahamiyatini tavsiflash hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ayniqsa asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish hozirgi kunda respublikamizda o'ta dolzarb vazifalar hisoblanadi. Sir emaski, ekinlar hosildorligini oshirish, avvalo tuproqlarning xossa-xususiyatlari va tartibotlarini chuqur o'rganish asosida ularning unumdorligini oshirish bilan hal bo'ladi.

Ko'pchilik hollarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tajribasida tuproqlarning xossalari, ayniqsa uning fizikaviy tartibotlari e'tibordan chetda qolib, ekinlar hosildorligi asosan mineral va organik o'g'itlar solish hisobida amalga oshiriladi va tuproq unumdorligini oshirish, uni saqlash muammosi to'g'risida g'amxo'rlik qilinmaydi.

Tuproq unumdorligini boshqarish va oshirish eng qiyin muammolardan biri hisoblanadi. Chunki unumdorlik faqatgina uni

# O‘QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil “29” Sentabr dagi “438”-sonli buyrug‘iga asosan

*S.M.Nazarova*

*(muallifning familiyasi, ismi-sharfi)*

*Agrokimyo va agrotuproqshunoslik*

*(ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi))*

\_\_\_\_\_ ning  
talabalari (o‘quvchilari) uchun tavsiya etilgan

*Tuproq fizikasi va iqlimshunoslik*

*(o‘quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o‘quv qo‘llanma)*

\_\_\_\_\_ ga  
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazir



*I. Abduraxmonov*

№ 438347